

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.1.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

CAO GANG

**TASHQI SAVDONI RIVOJLANTIRISHDA HUDUDLAR
SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING USTUVOR
YO‘NALISHLARI (XXR NING SINSZIYAN VA O‘ZBEKISTONNING
TOSHKENT SHAHRI MISOLIDA)**

08.00.12 – “Mintaqaviy iqtisodiyot”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Content of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on economical sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

Cao Gang

Tashqi savdoni rivojlantirishda hududlar salohiyatidan samarali foydalanishning
ustuvor yo'nalishlari (XXR ning sinsziyan va O'zbekistonning Toshkent shahri
misolida).....3

Cao Gang

Priority Directions for the Effective Use of Regional Potential in the Development
of Foreign Trade (On the Example of the Xinjiang Uygur Autonomous Region of
the PRC and the City of Tashkent, Uzbekistan).....26

Cao Gang

Приоритетные направления эффективного использования потенциала
регионов в развитии внешней торговли (На примере Синьцзян-Уйгурского
автономного района КНР и города Ташкента, Узбекистан).....49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of published works

Список опубликованных работ 54

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.1.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

CAO GANG

**TASHQI SAVDONI RIVOJLANTIRISHDA HUDUDLAR
SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING USTUVOR
YO‘NALISHLARI (XXR NING SINSZIYAN VA O‘ZBEKISTONNING
TOSHKENT SHAHRI MISOLIDA)**

08.00.12 – “Mintaqaviy iqtisodiyot”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.PhD/IQT3586 -raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.nuu.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Umarov Abduvahob Tursunovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Valiyev Bobur Batirovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bekmuradov Nurali Xolmatovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti.

Dissertatsiya himoyasi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.1.01.10-raqamli Ilmiy kengashning -----yil ----- kuni, soat ----- dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-08-62; (+99871) 227-10-59; faks: (+99871) 246-65-24.

Dissertatsiya ishi bilan Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (55-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-08-62; (+99871) 227-10-59; faks: (+99871) 246-65-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 25-mart kuni tarqatildi.

(2026-yil 25 mart 57-raqamli reyestr bayonnomasi)

A.T. Umarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Q.Q. Mambetjanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

B.T. Berdiyarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlarida xalqaro savdo oqimlarining barqaror o'sishini ta'minlash, hududlararo iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, transport-logistika tizimlarini integratsiyalash va tranzit salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan iqtisodiy siyosatning ahamiyati tobora ortib bormoqda. "Global Trade Update" hisobotiga ko'ra, 2030-yilga borib jahon eksporti hajmi 40 trillion AQSh dollaridan oshishi prognoz qilinmoqda. 2024 - yilda xalqaro savdo aylanmasi tarixiy rekord darajaga yetib 33 trillionni tashkil etgan hamda bir yil davomida 1,2 trillionga kengaygan. Ushbu o'sishning asosiy qismi xizmatlar sohasi hissasiga to'g'ri kelib, u 700 milliardlik qo'shimcha qiymat yaratgan bo'lsa tovarlar aylanmasi 500 milliardga ortgan¹. Bu esa, o'z navbatida, hududlarning mavjud eksport va ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish, tashqi savdo tarkibini diversifikatsiya qilish hamda xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshlikni oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Jahonda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda tashqi savdo samaradorligini oshirish, hududlarning eksport salohiyatidan oqilona foydalanish hamda ularning xalqaro iqtisodiy jarayonlardagi ishtirokini kengaytirish masalalari ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida o'rganilmoqda. Shu jumladan, hududlarning eksport ixtisoslashuvini takomillashtirish, global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv darajasini oshirish, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish, hududlarning raqobat ustunliklaridan samarali foydalanish hamda tashqi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Yangi O'zbekistonni shakllantirish sharoitida "Bir makon - bir yo'l" tashabbusi doirasida Xitoy Xalq Respublikasining Shinjon-Uyg'ur avtonom rayoni hamda O'zbekiston Respublikasining Toshkent shahri o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikning strategik ahamiyati tobora ortib bormoqda. Jumladan, Uzbekistan Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-oktabrdagi PF-6306-sonli Farmonida "...Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi ..."² masalalariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, ushbu vazifalar hududlarning tashqi savdo salohiyatidan samarali foydalanish, zamonaviy logistika tizimlarini rivojlantirish va xalqaro iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shinjon hududi Xitoyning g'arbga ochilgan asosiy transport-logistika darvozasi sifatida Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo aloqalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Toshkent shahri esa O'zbekistonning yirik sanoat, moliyaviy va transport markazi sifatida mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi.

¹ <https://unctad.org/news/global-trade-hits-record-33-trillion-2024-driven-services-and-developing-economies>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.09.2021 yildagi PF-6306-sonli farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan to‘g‘risida”da 2023 - yil 11 - sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2021-yil 7-sentabrdagi PF - 6306-son “Eksportchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlash, tashqi savdo faoliyatini yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini rivojlantirish, tranzit salohiyatini oshirish va xalqaro transport yo‘laklarini kengaytirishga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarida eksport salohiyatini oshirish vazifalarni bajarishga mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tashqi savdoni rivojlantirishda hududlar salohiyatidan samarali foydalanishning ustuvor yo‘nalishlari hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda turli modellardan foydalanish masalalarining nazariy jihatlarini chuqur o‘rganilmagan bo‘lsada, qisman xorijlik olimlardan I.Walter, M. E. Porter, P. R. Krugman, F. Masahisa, N. K. Nikolayevich, Lu Dadao, Don Tapscott, T. L. Mesenbourg, W. George³ kabilarning ilmiy ishlarida yoritilgan.

MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlaridan tashqi savdo, hududiy iqtisodiyot va raqamli iqtisodiyot masalalarini qisman A.G. Grigorevich, A. Aganbegyan, E. Primakov, S. Glazev hamda O. Inshakov⁴ kabi iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida hududiy rivojlanish, iqtisodiy rayonlashtirish, integratsion jarayonlar, transchegaraviy iqtisodiy hamkorlik va raqamli iqtisodiyotning institutsional asoslari nuqtayi nazaridan o‘rganilgan.

O‘zbekistonda mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining. Nazariy metodologik asoslari A.M. Sodiqov, A.T. Umarov T.M. Axmedov, F.T. Egamberdiyev, Sh.X. Nazarov, B.B. Ruzmetov, S.S. Zokirov, B.B. Valiyev, N.R. Raxmonov⁵ kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. O‘zbekiston mintaqalarining

³ Walter Isard. Methods of Regional Analysis: An Introduction to Regional Science. — Cambridge: MIT Press, 1960.

⁴ Александр Григорьевич Гранберг. Региональное развитие и экономическая интеграция. — Москва: Наука, 2020.

⁵ Sodiqov A.M. O‘zbekiston mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va uni tartibga solish mexanizmlari: iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. —Toshkent, 2006. - 20 b.; Umarov A.T. Mintaqa iqtisodiy salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirishning ekologik jihatlarini (Toshkent viloyati misolida) dissertatsiya avtoreferati. —Toshkent, 2007. - 160 b.; Axmedov T.M. Управление территориальной организацией производительных сил и комплексным развитием регионов Узбекистана: iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. —Toshkent, 1992. — 26 b.; Эгамбердиев Ф.Т. Совершенствование структуры производства на внутрорегиональном уровне // Молодой ученый. — 2016. — №. 21-1. — С. 61-63; Назаров Ш.Х. Эндогенные факторы конкурентоспособности региона и их эконометрическое тестирование. // Регион: Экономика и Социология, 2013. — С. 316-329.; Ruzmetov B.B., Ruzmetov Sh.B. Mintaqani kompleks rivojlantirishda raqobatbardoshlik afzalliklarini o‘rni // Молодой ученый. - 2016. - № 12.4 (116.4). - С. 57-60. - URL: <https://moluch.ru/archive/116/32193/>; Valiyev B.B. Hududlarda iqtisodiyot tarmoqlarini

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va uni tartibga solish mexanizmlari, Mintaqa iqtisodiy salohiyatidan foydalanish samaradorligini, oshirishning ekologik jihatlari, Hududlarda iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirishni oshirishda investitsiya resurslarini faol jalb qilish yo'llari, Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish asosida oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish

Biroq, yuqoridagi mamlakatimiz va xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida tashqi savdoni rivojlantirishda hududlar salohiyatidan samarali foydalanish, hududlarning eksport imkoniyatlarini kengaytirish, transchegaraviy iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish hamda logistika infratuzilmasini takomillashtirish masalalari qisman tadqiq etilgan bo'lsa-da, XXRning Shinjon hududi va O'zbekistonning Toshkent shahri o'rtasidagi tashqi savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, hududiy salohiyatdan samarali bajarilmaganligi. Mazkur tadqiqot ishining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi hududlar o'rtasida iqtisodiy va savdo hamkorligini yanada rivojlantirish istiqbollari bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

transchegaraviy hududlararo iqtisodiy va savdo hamkorlikni chuqurlashtirishga oid nazariy yondashuvlarni tizimli o'rganish va ilmiy umumlashtirish;

hududlararo iqtisodiy va savdo hamkorligini rivojlantirishning zamonaviy usullari hamda mexanizmlarini tahlil qilish va ularni takomillashtirish yo'nalishlarini asoslash;

global mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlari va amaliyotini qiyosiy tahlil qilish;

Toshkent va Shinjon hududlarining iqtisodiy-geografik xususiyatlari hamda ularning iqtisodiy salohiyatini o'rganish;

hududlar o'rtasidagi iqtisodiy va savdo hamkorligi tendensiyalarini hamda logistika infratuzilmasi rivojlanishidagi mavjud muammolarni kompleks tahlil qilish;

Toshkent va Shinjon o'rtasidagi mintaqaviy integratsiya darajasini qiyosiy baholash va rivojlanish farqlarini aniqlash;

qishloq xo'jaligi texnologiyalari, xalqaro moliya va xalqaro logistika sohalarida o'zaro hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

hududlar o'rtasida iqtisodiy va savdo hamkorligini yanada rivojlantirish istiqbollari bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti Toshkent shahri va Shinjon-Uyg'ur avtonom rayoni hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti Tashqi savdoni rivojlantirishda hududlar salohiyatidan foydalanishni samarali tashkil etish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, ma'lumotlarni moslashtirish (data fitting), entropiya og'irlik usuli, shuningdek, sifat va miqdoriy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Shinjon-Uyg'ur avtonom rayoni va Toshkent shahrini ikki yadroli o'sish markazlari sifatida shakllantirish hamda Xitoy va O'zbekistonning uchinchi tomon shaharlari yoki hududlarini jalb etish orqali ochiq "2+X" hamkorlik modelini yaratish g'oyasiga asoslangan bo'lib, bu hududiy to'siqlarni bartaraf etish, ishlab chiqarish omillarining transchegaraviy erkin harakati va optimal taqsimlanishini jadallashtirish, ishlab chiqarish hamda bozor ko'lamini kengaytirish, miqyos samaradorligiga erishish va ikki tomonlama iqtisodiy-savdo hamkorligining diversifikatsiyalashgan hamda barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shinjon va Toshkent o'rtasidagi savdo o'sish tendensiyalarini prognozlashga asoslangan bo'lib, bunda Shinjon va O'zbekiston o'rtasidagi savdo statistikasi qayta ishlanib, Toshkent hamda Shinjonning import-eksport ma'lumotlari tizimlashtirilgan va ma'lumotlar taqsimoti xususiyatlariga mos keluvchi data fitting usuli orqali kelgusidagi savdo rivojlanish tendensiyalari ilmiy asosda baholangan.

Hududiy iqtisodiy integratsiyani baholash tizimini shakllantirishga asoslangan bo'lib, umumiy iqtisodiy rivojlanish, sanoat bazasi, logistika rivoji, savdo taraqqiyoti va innovatsion salohiyat kabi beshta birlamchi ko'rsatkich hamda 20 ta ikkilamchi ko'rsatkichlardan iborat tizim yaratilgan va entropy weight usuli yordamida 2011 - 2025 yillarda Shinjon va O'zbekiston o'rtasidagi integratsiya darajasi baholangan.

Shinjon va Toshkent o'rtasida kompleks iqtisodiy-savdo hamkorligini rivojlantirish mexanizmini shakllantirishga asoslangan bo'lib, transmilliy hududiy hamkorlik tajribalarini umumlashtirish orqali ikki tomonlama iqtisodiy-savdo munosabatlarini chuqurlashtirishning maqsadlari, asosiy kafolatlari, ustuvor yo'nalishlari hamda amalga oshirish strategiyalari belgilab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

Shinjon va Toshkentni ikki yadroli o'sish markazlari sifatida shakllantirishga asoslangan ochiq "2+X" transchegaraviy submintaqaviy hamkorlik modeli taklif etilgan bo'lib, u hududiy to'siqlarni bartaraf etish, ishlab chiqarish omillarining transchegaraviy harakati va samarali taqsimlanishini jadallashtirish hamda ishlab chiqarish va bozor ko'lamini kengaytirish orqali miqyos samaradorligiga erishishga xizmat qiladi;

Toshkent va Shinjon o'rtasidagi savdo statistikasi qayta ishlanib, ma'lumotlarga mos keluvchi data fitting usullari tanlangan va savdo o'sish tendensiyalari miqdoriy jihatdan prognoz qilingan;

5 ta birlamchi va 20 ta ikkilamchi ko'rsatkichlardan iborat hududiy iqtisodiy integratsiyani baholash indeksi tizimi ishlab chiqilgan hamda 2011-2025 yillar

davomida Shinjon va O'zbekiston o'rtasidagi integratsiya darajasi entropy weight usuli yordamida o'lchangan;

transmilliy hududiy hamkorlik tajribalariga tayangan holda Toshkent va Shinjon o'rtasidagi iqtisodiy-savdo hamkorligini rivojlantirishning maqsadlari, asosiy kafolatlari, ustuvor yo'nalishlari va rivojlanish strategiyalarini qamrab oluvchi kompleks konseptual asos ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tegishli nazariy yondashuvlar, metodlar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Xitoy Milliy statistika byurosi, Xitoy Bosh bojxona boshqarmasi, shuningdek, tegishli davlat organlari, ilmiy muassasalar va xalqaro tashkilotlarning rasmiy veb-saytlaridan olingan ma'lumotlardan foydalanish orqali ta'minlangan. Natijalar data fitting, entropy weight usuli hamda kompleks miqdoriy va sifat tahlillari asosida ilmiy jihatdan asoslangan bo'lib, xulosa, taklif va tavsiyalar tadqiqot institutlari, tarmoq assotsiatsiyalari va ikki tomonlama savdo-sanoat palatalari tomonidan qabul qilinib amaliyotga joriy etilgan hamda ilmiy tadqiqotlar va amaliy hamkorlik jarayonlarida o'z tasdig'ini topgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati transchegaraviy submintaqaviy iqtisodiy hamkorlik hamda hududiy ishlab chiqarish komplekslarining sinergetik rivojlanishi nazariyalarini boyitishda, "ikki yadroli o'sish markazlari" bog'liqligining ichki mexanizmini aniqlashtirishda, hududiy iqtisodiy integratsiyani o'lchash tizimi va savdo tendensiyalarini prognoz qilish metodini ishlab chiqishda, ochiq "2+X" hamkorlik modelining nazariy asoslari va ishlash mexanizmini taklif etishda hamda Xitoy va Markaziy Osiyo o'rtasidagi transchegaraviy submintaqaviy hamkorlik uchun mos ilmiy tahlil tizimi va metodologik yondashuvni shakllantirishda o'z ifodasini topadi. Mazkur ilmiy natijalar mintaqaviy iqtisodiyot bo'yicha nazariy tadqiqotlarni chuqurlashtirish, transchegaraviy iqtisodiy-savdo hamkorlik modellarini takomillashtirish, ishlab chiqarish omillari oqimi va resurslarni taqsimlash bo'yicha tadqiqotlarni optimallashtirish hamda shunga o'xshash transchegaraviy submintaqaviy hamkorliklar uchun nazariy asos va tahliliy vosita sifatida xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amalga oshirish rejalari Xitoyning Shinjon-Uyg'ur avtonom rayoni va O'zbekistonning Toshkent shahri o'rtasidagi iqtisodiy-savdo hamkorligini chuqurlashtirishni bevosita yo'naltirish, savdo tarkibini optimallashtirish, savdo nomutanosibligini yumshatish hamda O'zbekistonning sanoatlashtirish va qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish jarayonlariga ko'maklashish imkonini berishi bilan izohlanadi. Tegishli natijalar hukumat tomonidan mintaqaviy hamkorlik dasturlarini ishlab chiqishda, korxonalar tomonidan transchegaraviy investitsiya va savdoni amalga oshirishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida "mintaqaviy iqtisodiyot", "xalqaro savdo" va "transchegaraviy iqtisodiy hamkorlik" kabi fanlar bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalarini tayyorlash hamda kadrlar tayyorlash jarayonida ham qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tashqi savdoni rivojlantirishda hududlar salohiyatidan samarali foydalanishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha dissertatsiya ishida olingan ilmiy natijalar asosida:

ishlab chiqarish modeli takomillashtirilib, iqtisodiy o‘shish va hududiy iqtisodiy hamkorlikning nazariy hamda amaliy jihatlariga oid ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Mazkur yondashuvlar Xitoy, Mo‘g‘uliston ,O‘zbekiston iqtisodiy koridori bo‘yicha tadqiqotlar uchun hamkorlikdagi innovatsion markaz hamda Ichki Mo‘g‘uliston avtonom rayoni sovuq zanjir sanoati assotsiatsiyasi tomonidan qabul qilinib, amaliyotga joriy etilgan.

Shuningdek, ishlab chiqilgan taklif O‘zbekiston savdo - sanoat palatasi tomonidan ham ko‘rib chiqilib, amaliyotga joriy etish uchun qabul qilingan (“O‘zbekiston savdo - sanoat palatasi”ning 2025-yil 22-avgustdagi 06-05-33-9486-sonli ma’lumotnomasi asosida), bu esa uning amaliy ahamiyati va qo‘llanilish imkoniyatlari yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

Shinjon va O‘zbekiston o‘rtasidagi, shuningdek Toshkent va Xitoy o‘rtasidagi savdo tendensiyalari prognoz qilingan bo‘lib, Toshkent va Shinjon o‘rtasida sezilarli savdo salohiyati mavjudligi aniqlangan. Olingan prognoz natijalari va ilmiy xulosalar Ichki Mo‘g‘uliston avtonom rayoni sovuq zanjir logistika sanoati assotsiatsiyasi tomonidan amaliyotda qo‘llanilgan.

Shuningdek, mazkur natijalar O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan ham ko‘rib chiqilib, amaliyotga joriy etish uchun qabul qilingan (“O‘zbekiston savdo-sanoat palatasi”ning 2025-yil 22-avgustdagi 06-05-33-9486-sonli ma’lumotnomasi asosida), bu esa ishlab chiqilgan yondashuvlarning amaliy ahamiyati va iqtisodiy prognozlashdagi samaradorligini tasdiqlaydi.

5 ta birlamchi va 20 ta ikkilamchi ko‘rsatkichlardan iborat hududiy iqtisodiy integratsiyani baholash indeksi tizimi ishlab chiqildi hamda 2011 - 2025-yillar oralig‘ida Shinjon va O‘zbekiston o‘rtasidagi integratsiya darajasi entropy weight usuli asosida kompleks tahlil qilindi. Olingan natijalar mintaqalararo iqtisodiy integratsiya jarayonining vaqt bo‘yicha o‘zgarishlarini chuqur o‘rganish, uning asosiy omillarini ajratib ko‘rsatish va ular o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasini baholash imkonini berdi.

Ushbu yondashuv O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan ko‘rib chiqilib, amaliyotga joriy etish uchun qabul qilingan (“O‘zbekiston savdo-sanoat palatasi”ning 2025-yil 22-avgustdagi 06-05-33-9486-sonli ma’lumotnomasi asosida), bu esa ishlab chiqilgan metodikaning amaliyot uchun foydali ekanini hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida ishonchli ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Transmilliy hududiy hamkorlik tajribalarini tizimli o‘rganish asosida Toshkent va Shinjon o‘rtasidagi iqtisodiy-savdo aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks konseptual asos ishlab chiqildi. Mazkur yondashuv hamkorlikning strategik maqsadlarini aniq belgilash, uni amalga oshirishni ta’minlovchi institutsional-iqtisodiy kafolatlar tizimini shakllantirish, ustuvor yo‘nalishlarni ilmiy asosda ajratish hamda uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini kompleks tarzda ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Ushbu ilmiy natijalar O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan ko‘rib chiqilib, amaliyotga joriy etish uchun qabul qilingan (“O‘zbekiston savdo-sanoat palatasi”ning 2025-yil 22-avgustdagi 06-05-33-9486-sonli ma’lumotnomasi asosida), bu esa ishlab chiqilgan konseptual asosning amaliy ahamiyatga ega ekanini hamda mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish jarayonida samarali metodologik instrument sifatida xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari aprobasiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy konferensiyada, jumladan 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo‘yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola (ulardan 3 tasi xorijiy jurnallarda), xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida 7 ta ma’ruza tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, uning umumiy hajmi 131 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, uning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi hamda ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma’lumot berilgan.

Dissertatsiyaning **“Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning nazariy va metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida hududlararo iqtisodiy hamkorlikning mazmun-mohiyati va nazariy asoslari yoritilgan. Jumladan, hududlararo iqtisodiy hamkorlik turli mamlakatlar yoki mintaqalar o‘rtasida resurslar hamda tovarlarning bozordagi savdo-iqtisodiy faoliyatini anglatishi ta’kidlangan. Hamda, xalqaro miqyosdagi raqobatga zid bo‘lmagan o‘zaro manfaatli mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish va iste’mol munosabatlarining muhim shakli sifatida tavsiflangan. Shuningdek, “hududlararo iqtisodiy aloqalar iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish, hududlarning raqobatbardoshligini oshirish hamda iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni ta’minlashda muhim omil ekanligi asoslab berilgan”⁶.

Tashqi savdoni rivojlantirishda hududlar salohiyatidan samarali foydalanishda Jacob Vinerning savdo yaratish va savdoni chetga og‘dirish nazariyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Olimning ta’kidlashicha, “hududlar o‘rtasidagi ishlab chiqarish

⁶ Asian Development Bank. Asian Economic Integration Report 2024. Manila, 2024.

xarajatlari farqidan oqilona foydalanish savdo hajmi va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Tashqi tariflarning yuqori darajada belgilanishi savdo oqimining qisqarishiga va iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin”⁷.

Tashqi savdoni samarali rivojlantirish uchun hududiy iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish, ishlab chiqarish omillarining harakatchanligini oshirish va miqyos tejamkorligidan foydalanish muhimdir. Bu borada “James Meade ishlab chiqarish va iste’mol tarkibidagi o’zgarishlarni birgalikda baholash zarurligini ta’kidlaydi”⁸.

Bundan taqashqari, “Bela Balassa integratsiyaning bosqichma-bosqich rivojlanishi orqali bozorlarni kengaytirish savdo samaradorligini oshirishini ko’rsatadi deb fikrlarini ilgari surgan”⁹.

Shu qatorda, “Tibor Scitovskyning fikricha, bozorlarning kengayishi ishlab chiqarish hajmini oshirib, miqyos tejamkorligi orqali iqtisodiy samaradorlikni kuchaytiradi. Biroq, bunday jarayon ayrim yirik korxonalarning ustun mavqega ega bo’lishi va monopolistik holatlar yuzaga kelish xavfini ham keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, u raqobatni himoya qiluvchi siyosatni kuchaytirish zarurligini ta’kidlaydi”¹⁰. Tashqi savdoni rivojlantirishda hududlar salohiyatidan samarali foydalanish - bu hududlarning tabiiy-resurs ishlab chiqarish infratuzilma va ixtisoslashuv imkoniyatlaridan oqilona foydalanish orqali eksport hajmini oshirish importga bog’liqlikni optimallashtirish hamda tashqi iqtisodiy aloqalar samaradorligini kuchaytirishga qaratilgan iqtisodiy jarayondir”¹¹.


⁷ Viner, Jacob. The customs union issue. Oxford University Press, USA, 2014

⁸ Meade, James Edward. "The theory of customs unions." North-Holland Publishing (1955).

⁹ Balassa, B. (1961). The Theory of Economic Integration (Routledge Revivals) (1st ed.). Routledge.

¹⁰ Tibor Scitovsky. Economic Theory and Western European Integration. Stanford University Press, 1958.

¹¹ Muallif ta’rifi



1 - rasm. Chegaralararo mintaqalararo iqtisodiy va savdo hamkorligini chuqurlashtirishning nazariy tasnifi¹²


¹² Muallif ishlanmasi

Shunday qilib, chegaralararo mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy va savdo hamkorligini chuqurlashtirishning nazariy hamda amaliy asoslarini tizimli ravishda ifodalaydi. Modelda "A" va "B" davlatlari yoki mintaqalarining ichki iqtisodiy muhiti, institutsional salohiyati, infratuzilma darajasi va chegaradosh hududlarning resurs imkoniyatlari o'zaro ta'sir qiluvchi asosiy omillar sifatida ko'rsatilgan.

Ta'kidlash joizki, geografik yaqinlik, transport va logistika tizimlari, siyosiy moslik hamda xavfsizlik omillari chegaralararo iqtisodiy makon shakllanishida muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan. Shu bilan birga, savdo-investitsiya oqimlari, texnologiyalar almashinuvi va mehnat migratsiyasi kabi mexanizmlar iqtisodiy integratsiyani kuchaytiruvchi vositalar sifatida namoyon bo'ladi.

Ushbu rasmda yangi iqtisodiy geografiya, institutsional iqtisodiyot, tarmoq nazariyasi va komparativ ustunlik nazariyalari asosiy nazariy yondashuv sifatida qo'llanilib, ular orqali hududlararo hamkorlikning samaradorligi tushuntirilgan. Natijada, chegaralararo iqtisodiy va savdo hamkorligini chuqurlashtirish hududlarning raqobatbardoshligini oshirish, umumiy farovonlikni ta'minlash hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishishda muhim omil ekanligi asoslab berilgan.

Hududlararo iqtisodiy va savdo hamkorligini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari o'zaro uzviy bog'liq holda tasvirlangan. Unda, avvalo, hududlarning iqtisodiy imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish, mavjud resurs va ehtiyojlarni aniqlash hamda hamkorlikning ustuvor maqsadlarini belgilash zarurligi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, samarali iqtisodiy aloqalarni shakllantirishda huquqiy-meyoriy bazani mustahkamlash, investitsion muhitni yaxshilash va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan. Ushbu jarayonlar hududlar o'rtasidagi iqtisodiy integratsiyani kuchaytirib, savdo aloqalarining barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.



2 - rasm. Hududlararo iqtisodiy va savdo hamkorligini rivojlantirish usullarining tasnifi¹³

¹³ Muallif ishlanmasi

Rasmning keyingi qismida esa transport-logistika tizimini rivojlantirish, axborot almashinuvini kengaytirish va qo‘shma loyihalarni amalga oshirish orqali iqtisodiy faollikni oshirish masalalari aks ettirilgan. Shu bilan birga, monitoring va baholash tizimini yo‘lga qo‘yish, malakali kadrlar tayyorlash hamda uzoq muddatli hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash hududlarning raqobatbardoshligini oshiruvchi asosiy omillardan biri sifatida yoritilgan. Bundan tashqari, hududlararo iqtisodiy hamkorlikni izchil rivojlantirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi farovonligini yuksaltirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Ishlab chiqarish nuqtai nazaridan iqtisodiyot - bu iqtisodiy subyektlarning ishlab chiqarish texnologiyalari va boshqaruv usullarini oqilona takomillashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi hamda kapital, material va mehnat kabi ishlab chiqarish omillarini tejashga erishish jarayonidir.



3 - rasm. Ishlab chiqarishning kontseptual modeli¹⁴

Ishlab chiqarish modeli beshta asosiy elementdan iborat: kirish resurslari, ishlab chiqarish jarayoni, chiqish natijalari, cheklovlar va qayta aloqa. Kirish resurslariga inson resurslari, materiallar va kapital kabi omillar kiradi. Ishlab chiqarish jarayoni esa kirish resurslaridan boshlanib, tayyor mahsulot ishlab chiqarish bilan yakunlanadigan operatsiyalar ketma-ketligini anglatadi.

Iqtisodiy o‘shishning mohiyati ishlab chiqarish omillari -mehnat, xomashyo, kapital va texnologiyalar oqimining tezligini oshirish hamda ishlab chiqarish jarayonidagi transformatsiya samaradorligini kuchaytirishdan iboratdir.

Har qanday hududda tabiiy resurslar va mehnat kabi ishlab chiqarish omillarining miqdori cheklangan bo‘lganligi sababli, hududiy mehnat taqsimoti va o‘zaro muvofiqlashtirish zarur hisoblanadi. Hozirgi davrda global savdo-iqtisodiy tizim “samaradorlik ustuvorligi” modelidan “xavfsizlik va samaradorlik muvozanati” modeliga o‘tmoqda. Shu sababli, mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik globallashuvning parchalanish jarayonida davlatlar uchun muhim rivojlanish yo‘nalishiga aylanmoqda. Ushbu o‘zgarishning asosiy mazmuni savdo oqimlari, logistika, kapital oqimlari va axborot oqimlarini tizimli integratsiya qilish orqali mintaqaviy qiymat zanjirlarining raqobatbardoshligini qayta shakllantirishdan iborat.

¹⁴ Muallif ishlanmasi

Savdo oqimlari mintaqaviy qiymat zanjirlarini qayta tashkil etishda institutsional yondashuvlarning muhim omili hisoblanadi. Mintaqaviy qiymat zanjirlarini qayta shakllantirishning asosiy maqsadi institutsional islohotlar orqali tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va resurslarni samarali taqsimlashni optimallashtirishdir.

Logistika - ta'minot zanjiri barqarorligini ta'minlovchi jismoniy bog'liqlik omilidir. Globallashuv sur'atlarining pasayishi va ta'minot zanjiri xavfsizligi bilan bog'liq tahdidlarning ortib borishi sharoitida infratuzilmaviy bog'liqlik an'anaviy yordamchi omildan mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikning strategik tayanchiga aylanmoqda.

Kapital oqimlari esa mintaqaviy moliyaviy integratsiyani rivojlantirishdagi institutsional innovatsiyalar bilan chambarchas bog'liqdir. Chegaralararo moliyaviy oqimlarning samarali tashkil etilishi mintaqaviy savdo hajmini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bois, ular moliyaviy to'siqlarni kamaytirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashning muhim strategik vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Axborot oqimlari ma'lumotlarni boshqarish qoidalari asosidagi raqobat va hamkorlik jarayonini ifodalaydi. Mintaqaviy axborot almashinuvi platformalari axborot integratsiyasini ta'minlashning muhim vositasi hisoblanadi. Hududiy iqtisodiy, savdo, logistika va moliyaviy ma'lumotlarni yagona tizimga birlashtirish orqali axborot almashinuvi va o'zaro bog'liqlik kuchayadi, bu esa axborotdan foydalanish samaradorligini oshiradi.


Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya dunyo miqyosida turli modellarda namoyon bo'lib, Yevropa Ittifoqi institutsional hamkorlikka asoslangan eng rivojlangan model sifatida e'tirof etiladi. Yevropa Ittifoqining "supramilliy" integratsiya modeli a'zo davlatlar o'rtasida ko'p bosqichli boshqaruv va qaror qabul qilish tizimini shakllantirib, bozor integratsiyasi asosida ishlab chiqarish omillarining erkin harakatlanishini ta'minlaydi. Yevropa Ittifoqining muvaffaqiyati nafaqat a'zo davlatlar o'rtasidagi chuqur integratsiyada, balki submintaqaviy hamkorlik tashabbuslarining samarali rivojlanishida ham namoyon bo'ladi.

"Toshkent va Shinjon o'rtasidagi iqtisodiy-savdo hamkorligi tahlili" deb nomlangan dissertatsiyaning ikkinchi bobida Toshkent va Shinjonning iqtisodiy-geografik xususiyatlari, ikki hudud o'rtasidagi iqtisodiy-savdo hamkorligi hamda logistika infratuzilmasi muammolarining rivojlanish tendensiyalari, shuningdek, Shinjon va O'zbekiston o'rtasidagi mintaqaviy integratsiya darajalarining qiyosiy tahlili bilan bog'liq ilmiy-amaliy masalalar ko'rib chiqilgan.

Shinjon iqtisodiyoti jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Hozirgi vaqtda Shinjon sanoati miqyosiy kengayish bosqichidan sifat va samaradorlikni oshirish bosqichiga o'tmoqda. Texnologik innovatsiyalarni kuchaytirish, sanoat tarkibini optimallashtirish hamda tashqi ochiqlikni chuqurlashtirish orqali "Bir makon, bir yo'l" tashabbusining asosiy hududini barpo etish uchun mustahkam sanoat tayanchi yaratilmoqda. Shinjonning axborot texnologiyalari sanoati allaqachon nisbatan to'liq ekotizimni shakllantirgan bo'lib, hududning yuqori sifatli rivojlanishini


harakatga keltiruvchi asosiy omilga aylangan. Raqamli texnologiyalar qishloq xo‘jaligi va sanoat kabi sohalarda keng qo‘llanilmoqda.

“Bir makon, bir yo‘l” tashabbusining izchil amalga oshirilishi natijasida Shinjonning tashqi savdosi jadal rivojlanmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari Shinjonning asosiy savdo hamkorlariga aylangan bo‘lib, O‘zbekiston bilan iqtisodiy-savdo aloqalari tobora mustahkamlanib bormoqda.



4 - rasm. 2006 - 2025 yillarda XXR shinjon provensiyasi va (O‘zbekiston) Toshkent o‘rtasidagi savdo ko‘rsatkichlari (mln AQSH dollari)¹⁵

2006 - 2025-yillar davomida O‘zbekistonning tashqi savdo hajmi asta-sekin o‘sib borgan. Ayniqsa, so‘nggi yillarda eksport hajmining sezilarli oshgani mamlakatning tashqi bozorlardagi faolligi kuchayganini ko‘rsatadi. 2020 - 2021 yillarda savdo hajmida biroz sekinlashuv kuzatilgan bo‘lsa-da, keyingi davrda yana yuqori o‘sish qayd etilgan. Shu bilan birga, o‘zgarishlar mamlakatning xalqaro savdo tizimidagi integratsiyasi kuchayib borayotganini aks ettiradi.



5 - rasm. 2010 - 2025 yillarda Toshkent eksporti tarkibidagi o‘zgarishlar¹⁶

¹⁵Muallif tomonidan Shinjon statistika byurosi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

¹⁶ Muallif tomonidan Toshkent statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzildi.

2006 - 2025-yillar davomida Shinjon va O'zbekiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar sezilarli darajada rivojlandi. Ushbu davrda o'zaro savdo hajmi 266 million dollardan 1,479 milliard dollargacha oshib, hamkorlikning yangi bosqichga ko'tarilganini ko'rsatdi. Bu esa ikki hudud o'rtasidagi iqtisodiy integratsiya va savdo aloqalarining tobora mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

Toshkent O'zbekistonning iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan hududi hisoblanadi. 2025-yilda shaharning yalpi hududiy mahsuloti 252,11 trillion so'mni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 11,2 foizga o'sdi. Bu esa hududda xizmat ko'rsatish sohasi, savdo va ishlab chiqarish tarmoqlarining yuqori sur'atlarda rivojlanayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, Toshkent mamlakatda bozor xizmatlari ko'rsatish sohasida yetakchi o'rinni egallab kelmoqda.

2010 - 2025-yillar davomida Toshkentning tashqi savdo aylanmasi keskin "V-shaklli" tiklanish va barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etdi. Natijada eksport-import operatsiyalari hajmi 9,0 milliard AQSH dollaridan 30,6 milliard AQSH dollarigacha oshdi. Bu esa hududning tashqi iqtisodiy faolligi, logistika imkoniyatlari va xalqaro bozorlar bilan integratsiyasi tobora kuchayib borayotganini anglatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Toshkent eksport tarkibida xizmatlar sohasi ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, uning ulushi boshqa tovar guruhlariga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Bu holat shahar iqtisodiyotida yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi xizmatlar sektori, jumladan transport, moliya, axborot texnologiyalari va savdo xizmatlarining strategik ahamiyati ortib borayotganini ifodalaydi.

1 - jadval

Toshkentdan eksport qilinadigan eng yirik to'rtta mahsulotidagi o'zgarishlar dinamikasi¹⁷

№	Mahsulot nomi	2021	2022	2023	2024	2025
1	Xizmatlar	2026.1	2299.5	2883.8	3373.4	3620.1
2	Tosh, gips, sement va asbest mahsulotlari	2.8	3.5	8.6	433.1	466.8
3	Paxta va noto'qima matolar	15.4	26.2	20.6	275.7	274.8
4	Bosh kiyimlar	1.9	1.5	4.1	262.6	218.7

Shunday qilib, 2021 - 2025 yillarda Toshkent eksportida xizmatlar sohasi ustuvor mavqega ega bo'lib qolayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, qurilish materiallari va to'qimachilik mahsulotlari eksportida yuqori o'sish sur'atlari kuzatilgan. Bu esa Toshkent shaharining eksport tarkibi bosqichma-bosqich diversifikatsiyalanib, qayta ishlangan mahsulotlar ulushi ortib borayotganidan dalolat beradi.

2 - jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki 2021 - 2025 yillarda Toshkentning Xitoy bilan tashqi savdo munosabatlari sezilarli darajada faollashganini ko'rsatadi. Xususan, tashqi savdo aylanmasida import hajmining yuqori sur'atlarda o'sishi kuzatilib bu Xitoy mahsulotlarining Toshkent bozoridagi ahamiyati ortib borayotganini anglatadi.

¹⁷ Muallif tomonidan Toshkent statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi

**2021 - 2025 yillarda Xitoy O'zbekiston umumiy eksport import hajmida
Toshkent ulushining o'zgarishi¹⁸**

Yil	Xitoyga eksport (mln. AQSH dollari)	Ulushi	Xitoydan import (mln. AQSH dollari)	Ulushi	Jami (mln. AQSH dollari)	Ulushi
2021	781.7	20.32%	2705.0	21.24%	3486.7	21.03%
2022	788.4	16.88%	3205.7	21.46%	3994.1	20.37%
2023	744.0	13.65%	5473.8	27.74%	6217.8	24.69%
2024	777.1	36.93%	4572.5	43.26%	5349.6	42.21%
2025	1149.9	61.49%	6857.1	48.19%	8007.0	49.73%


Shu bilan birga, umumiy savdo hajmida Toshkent ulushining ortishi ikki hudud o'rtasidagi iqtisodiy integratsiyaning mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Biroq importning eksportga nisbatan tezroq o'sishi tashqi savdo balansida manfiy tafovut kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Toshkentning Xitoy bilan umumiy tashqi savdo hajmidagi ulushi doimo yuqori darajada saqlanib kelmoqda, bu esa ikki tomon o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlar yaqinligini ko'rsatadi. Toshkentning Xitoyga umumiy eksport hajmi oshib borayotgan bo'lsa-da, uning o'sish sur'atlari sezilarli darajada sekinlashgan. Shu bilan birga, Xitoydan import qilinayotgan tovarlar hajmi tezlashgan o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Mazkur holat Toshkentning Xitoy bilan tashqi savdosida manfiy savdo balansi bosqichma-bosqich kengayib borayotganini anglatadi.

Shuningdek, 2024-yilda GYBrand Global Brand Research Institute tomonidan e'lon qilingan dunyoning "Top 500 Cities in the World" reytingida Toshkent 463-o'rinni, Xitoyning Shinjon hududidagi Urumchi shahri esa 466-o'rinni egallagan. Bu esa ikki hudud o'rtasidagi iqtisodiy va institutsional aloqalar mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Toshkent va Shinjon o'rtasida o'zaro tashriflar hamda hamkorlik almashinuvlari izchil chuqurlashib bormoqda.

Mazkur tadqiqotda, avvalo, Toshkent va Xitoy o'rtasidagi savdo munosabatlarining rivojlanish tendensiyalari prognoz qilingan. Tahlil uchun Toshkent statistika boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan eksport-import savdo ma'lumotlaridan foydalanilgan. Toshkent va Xitoy o'rtasidagi savdo hajmining tarqalish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ikki hudud o'rtasidagi tashqi savdo rivojlanishini bashorat qilish uchun mos ma'lumotlarni modellashtirish usuli tanlangan.


Matlab 7.0 dasturida olingan moslashtirish natijalari samaradorligiga ko'ra, ikkinchi darajali moslashtirish usulini tanlash maqsadga muvofiq deb topildi. Mazkur dissertatsiyada 2015 - 2025-yillarda Toshkent va Xitoy o'rtasidagi eksport-import savdo ma'lumotlarini tahlil qilish hamda prognozlash uchun MATLAB 7.0 dasturidan foydalanildi. 6-rasmda 2015 - 2025-yillarda Toshkent va Xitoy o'rtasidagi savdo hajmining moslashtirilgan egri chiziqlari, shuningdek 2026 va 2028-yillar uchun prognoz natijalari keltirilgan.



6 - rasm. Toshkent va Xitoy o'rtasidagi savdo hajmining moslashtirilgan egri chiziqlari¹⁹

2026 - 2028-yillarda Toshkent va Xitoy o'rtasidagi ikki tomonlama savdo hajmi prognozi savdo aloqalarining yuqori sur'atlarda o'sish tendensiyasi saqlanib qolishini ko'rsatmoqda. Prognozlarga ko'ra, umumiy import va eksport hajmi 8 789 mln AQSH dollaridan 11 753 mln AQSH dollarigacha oshadi. Bunda Toshkentning Xitoydan import hajmi o'sish sur'ati Xitoyga eksport hajmi o'sishidan sezilarli darajada yuqori bo'lishi kutilmoqda, natijada savdo balansidagi manfiy tafovutning yanada kengayishi kuzatiladi. Mazkur tendensiya tomonlar o'rtasidagi iqtisodiy o'zaro to'ldiruvchanlik hamda hamkorlik salohiyatining izchil ro'yobga chiqayotganini aks ettiradi.

MATLAB 7.0 dasturida olingan moslashtirish natijalari samaradorligiga ko'ra, kubik (uchinchi darajali) moslashtirish usulini tanlash maqsadga muvofiq deb topildi. Mazkur dissertatsiyada MATLAB 7.0 dasturi yordamida 2015–2025-yillarda Shinjon va O'zbekiston o'rtasidagi import-eksport savdo ma'lumotlari moslashtirildi. 6-rasmda 2015–2025-yillarda Shinjon va O'zbekiston o'rtasidagi savdo hajmining moslashtirilgan egri chiziqlari hamda 2026 va 2028-yillar uchun prognoz ko'rsatkichlari keltirilgan.



7 - rasm. 2015 - 2025-yillarda Toshkent va Xitoy o'rtasidagi savdo hajmining moslashtirilgan egri chiziqlari hamda 2026 va 2028-yillar uchun prognoz ko'rsatkichlari²⁰

¹⁹ Muallif tomonidan MATLAB 7.0 dasturi yordamida hisoblab chiqilgan.

²⁰ Muallif tomonidan MATLAB 7.0 dasturi yordamida hisoblab chiqilgan.

2026 - 2028-yillar uchun Shinjon va O'zbekiston o'rtasidagi ikki tomonlama savdo prognozi savdo hajmining barqaror va yuqori sur'atlarda o'sishini ko'rsatadi. Prognozlarga ko'ra, umumiy savdo hajmining o'rtacha yillik murakkab o'sish sur'ati (CAGR) taxminan 10,13 foizni tashkil etadi. Bunda Shinjonning O'zbekistondan import hajmi o'sish sur'ati (31,32 foiz) uning O'zbekistonga eksport hajmi o'sish sur'atidan (7,69 foiz) sezilarli darajada yuqori bo'lishi kutilmoqda. Ushbu tendensiya ikki tomonlama savdo tuzilmasining bosqichma-bosqich takomillashib borayotganini, shuningdek, iqtisodiy hamkorlikning nafaqat miqyosi, balki sifati ham izchil yaxshilanayotganini anglatadi.

Hozirgi vaqtda Toshkent va Shinjon o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik asosan bozor tamoyillari asosida shakllanib, unda tovarlar importi va eksporti yetakchi o'rin egallamoqda. Hamkorlik, ayniqsa, yengil sanoat mahsulotlari, elektrotexnika va elektromexanik uskunalari hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari sohalarida yuqori darajadagi o'zaro to'ldiruvchanlikni namoyon etmoqda. Logistika infratuzilmasining takomillashuvi va bojxona rasmiylashtiruv samaradorligining ortib borishiga qaramay, hamkorlik rivojlanishida quyidagi cheklovlar hana saqlanib qolmoqda:

1. Toshkent va Shinjon o'rtasida institutsional asosdagi hukumatlararo muloqot mexanizmining mavjud emasligi hamkorlik siyosatini muvofiqlashtirishda kechikishlarga hamda qo'shma loyihalarni amalga oshirish jarayonida samaradorlikning pasayishiga olib kelmoqda.

2. Mavjud sanoat kooperatsiyasi va mehnat taqsimoti tizimi Toshkent hamda Shinjonning resurs va ishlab chiqarish ustunliklaridan to'liq foydalanish imkonini bermayapti. Shu bilan birga, faqat tovar ayirboshlashga asoslangan hamkorlik sanoatni modernizatsiya qilish uchun zarur bo'lgan texnologik transfertni yetarli darajada ta'minlamayotgani sababli sanoat rivojlanishi nisbatan sust kechmoqda.

3. Korxonalar moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi va an'anaviy kredit vositalariga yuqori darajada qaramligi bilan tavsiflanadi. Bundan tashqari, milliy valyutalarda o'zaro hisob-kitoblar mexanizmlaridan foydalanish darajasi pastligicha qolmoqda. Madaniy va huquqiy tafovutlar esa investitsion nizolarni hal etishda arbitraj va huquqiy himoya tizimlarining samaradorligini cheklamoqda.

Xitoy va O'zbekiston umumiy chegaraga ega bo'lmaganligi sababli, Shinjon va Toshkent o'rtasidagi transport va logistika aloqalari uchinchi davlatlar hududi orqali amalga oshiriladi.

3 - jadval

Toshkent va Shinjon o'rtasidagi asosiy quruqlik transport yo'nalishlari tasnifi²¹


Yo'nalish	O'tuvchi portlar va shaharlar	Transport turi	Masofa
1yo'nalish	Urumchi – Xorgos porti – Olmaota – Chimkent – Toshkent	Avtomobil va temir yo'l transporti	Taxminan 1700 km
2yo'nalish	Urumchi – Alashanko' porti – Olmaota – Chimkent – Toshkent	Avtomobil va temir yo'l transporti	Taxminan 1700 km
3yo'nalish	Qashg'ar – Irkeshtom porti – O'sh – Andijon – Toshkent	Avtomobil transporti	Taxminan 800 km

²¹ muallif tomonidan internet ma'lumotlari asosida tuzilgan

Shinjon va O‘zbekiston o‘rtasidagi transchegaraviy yuk tashuvlarining yetkazib berish vaqti kamayib, logistika operatsiyalarining samaradorligi oshdi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan bozorni liberallashtirish islohotlari, jumladan, bojxona tartib-taomillarining soddalashtirilishi va raqamli rasmiylashtirish tizimlarining joriy etilishi Shinjonning logistika siyosati bilan uyg‘unlashib, savdo qilinayotgan mahsulotlar tarkibining diversifikatsiyalashuviga hamda import-eksport tuzilmasining takomillashuviga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, Toshkent - Shinjon logistika koridorining yuk o‘tkazish quvvati muntazam kengayib borayotgani uning iqtisodiy integratsiya, hududiy klasterlashuv va tranzit salohiyatini yanada kuchaytirmoqda.

Toshkent va Shinjon o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikning asosiy rivojlanish yo‘nalishlari transport bog‘liqligining kuchayishi, savdo va sanoat integratsiyasining chuqurlashuvi, raqamli savdo mexanizmlarining rivojlanishi, institutsional hamkorlik platformalarining takomillashuvi hamda yashil va yuqori texnologiyali hamkorlikning kengayishi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqotda hududiy iqtisodiy integratsiya darajasini kompleks baholash hamda ko‘rsatkichlarning nisbiy ahamiyatini aniqlash maqsadida entropiya og‘irliklari usuli (Entropy Weight Method) qo‘llanildi.



8-rasm. Shinjon va O‘zbekiston o‘rtasidagi hududiy iqtisodiy integratsiya darajasi ko‘rsatkichlar²²

